



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA'LIMNI  
RIVOJLANTIRISH RESPUBLIKA  
ILMIY-METODIK MARKAZI




MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI

# Bolalarning yosh xususiyatlari asoslari

**Raximova Samira Abduxalimovna**

Toshkent shahrida "A.I.Gersen nomidagi Rossiya davlat pedagogika universiteti" Federal davlat budjeti oliy ta'lim muassasasi filiali "Maktabgacha ta'lim" kafedrasida katta o'qituvchisi

# Reja:



# 1.BOLALARNING YOSH XUSUSIYATLARI ASOSLARI



O'quvchilarning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishda hozirgi zamon o'quvchilariga xos bo'lgan o'ziga xos xususiyatlar bormi va bu xususiyatlar nimalardan iborat?



Bu savolning javobi hozirgi zamon fani uchun ham, o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish amaliyoti uchun ham prinsipial jihatdan muhimdir.




Maktab o'quvchilarining yosh xususiyatlarini o'rganish muammosi bugungi kunda nafaqat ota-onalar, balki maktab o'qituvchilari uchun ham eng dolzarb bo'lib qolmoqda, ular o'zlarining pedagogik faoliyatini samarali amalga oshirish uchun psixolog bo'lishlari kerak

## 2. KICHIK MAKTAB YOSHI

Maktabga borish bilan bolaning butun hayoti o'zgaradi, uning rejimi, tevarak-atrofdagi kishilarga munosabati o'zgaradi. Kichik maktab yoshidagi bolalarning xarakterli xususiyatlari quyidagilardir:

axloqiy ideallar - namunalarni qurish kattalar bahosi bilan shartlanganlik. yaxshilik va yomonlik haqidagi axloqiy tushunchalar.

ongsiz va keyinchalik his-tuyg'u yoki reja bilan boshqariladigan taqlid;




tashqi dunyoga ishonuvchanlik bilan qarash;

dunyoqarashning mifologikligi (cheksiz fantaziya va hissiy idrok asosida haqiqiy va xayoliy narsalarning o'zaro bog'lanishi);

his-tuyg'ular va tasavvurlarning erkin rivojlanishi;

### 3. O'RTA MAKTAB YOSHI

O'smir faoliyatining asosiy turi kichik maktab yoshidagi o'quvchi faoliyati kabi o'qishdir, lekin bu yoshda o'quv faoliyatining mazmuni va xarakteri sezilarli darajada o'zgaradi



O'smir fan asoslarini muntazam o'zlashtirishga kirishadi. O'qitish ko'p predmetli bo'ladi, bir o'qituvchining o'rnini pedagoglar jamoasi egallaydi. O'smirga yuqoriroq talablar qo'yiladi. Bu esa o'qishga bo'lgan munosabatning o'zgarishiga olib keladi. O'rta yoshdagi maktab o'quvchisi uchun o'quv mashg'ulotlari odatiy holga aylangan

# O'RTA MAKTAB YOSHI

**O'smirlik davrining xarakterli yosh xususiyatlari quyidagilardan iborat:**

o'z ichki dunyosiga e'tiborning kuchayishi;

xayolparastlikning rivojlanishi, voqelikdan ongli ravishda fantastikaga chekinish;

o'ziga ishonch va sarguzashtparastlik;

"qutulish uchun" yolg'onchilik, ayyorlik; axloqiy tanqidchilik, negativizm;

sarguzashtlarga, sayohatlarga (uydan qochish) muhabbat;

tashqi obro'-e'tiborni yo'qotish, shaxsiy tajribaga tayanish;

jinsiy aloqa bilan uyg'onadigan yangi his-tuyg'ularni shiddat bilan aniqlash.

# Katta maktab yoshi

O'spirin davrida - o'qish yuqori sinf o'quvchilari faoliyatining asosiy turlaridan biri bo'lib qolaveradi. Yuqori sinflarda bilimlar doirasi kengayishi, bu bilimlarni o'quvchilar voqelikning ko'pgina faktlarini tushuntirishda qo'llashlari munosabati bilan ular o'qishga ongliroq munosabatda bo'la boshlaydilar.

Bu yoshda ikki tipdagi o'quvchilar uchraydi: ba'zilar uchun qiziqishlarning bir tekis taqsimlanganligi xos bo'lsa, boshqalari bir fanga bo'lgan qiziqishning yaqqol ifodalanganligi bilan ajralib turadi.

O'spirinlikning xarakterli xususiyatlari quyidagilardan iborat: axloqiy maksimalizm; ichki erkinlik; estetik va axloqiy idealizm; voqelikni idrok etishning badiiy, ijodiy xarakteri; qiziqishlarda beg'arazlik; voqelikni bilish va qayta yaratishga intilish; olijanoblik va ishonuvchanlik.



# TRENING: “O‘QUVCHILARNING YOSH XUSUSIYATLARI”

**Maqsad:** ishtirokchilarni faollashtirish, mavzuga yo‘naltirish.

**Mini-enerdjayzer: “Yoshni top”**

- Ishtirokchilarga turli xulq-atvor misollari o‘qib eshittiriladi
- Ular qaysi yosh bosqichiga xos ekanini aytadilar



# XULQ-ATVOR MISOLLARI

## 1-misol

Bola o'qituvchining maqtovini juda katta ahamiyat bilan qabul qiladi.

Vazifani bajarganda asosiy e'tiborni natijaga emas, "harakat qilgani" uchun olgan bahoga qaratadi.

**To'g'ri javob:** Kichik maktab yoshi

**Izoh:** Bu yoshda katta bahosi yetakchi motivatsiya hisoblanadi.

## 2-misol

O'quvchi darsda faol, ammo tanaffusda juda harakatchan, uzoq vaqt joyida o'tirolmaydi, qoidalarni tez-tez buzadi.

**To'g'ri javob:** Kichik maktab yoshi

**Izoh:** Harakatga bo'lgan ehtiyoj yuqori bo'ladi.

## 3-misol

O'quvchi kattalar fikriga qarshilik ko'rsatadi, tengdoshlarining fikri u uchun muhimroq. O'zini "katta" deb his qiladi, lekin ichki ishonchsizlik kuzatiladi.

**To'g'ri javob:** O'rta maktab yoshi

**Izoh:** O'z-o'zini anglash va mustaqillikka intilish ustun.

#### **4-misol**

O'quvchi sinfdagi o'rni va tengdoshlar tomonidan qabul qilinish haqida qayg'uradi.

**To'g'ri javob:** O'rta maktab yoshi

**Izoh:** Ijtimoiy maqom muhim.

#### **5-misol**

O'quvchi kelajak, kasb va imtihonlar haqida o'ylaydi, xavotir kuzatilishi mumkin.

**To'g'ri javob:** Yuqori maktab yoshi

**Izoh:** Kasbiy o'zini anglash davri.

#### **6-misol**

O'quvchi o'zini boshqalar bilan solishtiradi, muvaffaqiyatga sezgir.

**To'g'ri javob:** Yuqori maktab yoshi

**Izoh:** O'z-o'zini baholash muhim.

## TRENER UCHUN XULOSA

“Biz ko‘rib turganimizdek, bir qarashda o‘xshash bo‘lib tuyulgan xulq-atvor ortida turli yosh bosqichlariga xos psixologik mexanizmlar yotadi. Shuning uchun psixologik ish doimo yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda olib borilishi kerak.”

**Xulosa:** har bir yoshning o‘ziga xos psixologik belgilari mavjud.



## 2-bosqich. Guruhlarda ish:

yosh xususiyatlarini tahlil qilish

Maqsad: nazariyani tayyor holda bermasdan, ishtirokchilar orqali chiqarish.

Ishtirokchilar 3 guruhga bo'linadi:

- 1-guruh: Kichik maktab yoshi (6–10 yosh)
- 2-guruh: O'rta maktab yoshi (11–14 yosh)
- 3-guruh: Yuqori maktab yoshi (15–17 yosh)

### Guruhlarga topshiriq (jadval asosida):

Yo'nalish	Topshiriq
Kognitiv rivojlanish	Qanday fikrlaydi, qanday o'rganadi?
Emotsional sohasi	Qanday his-tuyg'ular ustun?
Ijtimoiy rivojlanish	Kattalar va tengdoshlar bilan munosabat
Xulq-atvor	Qanday qiyinchiliklar kuzatiladi?
Psixologik ehtiyoj	Psixologdan nima kutadi?

→ Guruhlar flipchart yoki vatmanga yozadilar.

### **3-bosqich. Guruh taqdimotlari**

Har bir guruh 3–4 daqiqa davomida o‘z yosh bosqichi bo‘yicha natijalarini taqdim etadi.

Psixolog rolini bajaruvchi trener:

- umumlashtiradi
- to‘g‘rilaydi
- muhim nuqtalarni belgilab boradi


### **4-bosqich. Qisqa nazariya (10 daqiqa)**

Maqsad: ishtirokchilar chiqargan xulosalarni ilmiy asos bilan mustahkamlash.

Trener tomonidan qisqacha tushuntiriladi:

- har bir yosh bosqichining yetakchi faoliyati
- asosiy psixologik inqiroz nuqtalari
- yoshga mos yondashuv tamoyillari

Nazariya tayyor leksiya emas, guruh ishlariga tayanilgan holda beriladi.



## 5-bosqich. Keyslar bilan ishlash

**Maqsad:** yosh xususiyatlarini amaliyotda qo'llash.

Har bir guruhga yoshiga mos keys beriladi:

kichik maktab — o'quv motivatsiyasi va maktabga moslashuv

o'rta maktab — tajovuzkor xulq yoki guruh bosimi

yuqori maktab — past o'z-o'zini baholash yoki kelajak bilan bog'liq xavotir

### 1-guruh uchun keys

Kichik maktab yoshi: o'quv motivatsiyasi va maktabga moslashuv

#### Keys tavsifi:

7 yoshli o'quvchi maktabga yangi qabul qilingan. Darslarda tez charchaydi, vazifalarni bajarishdan qochadi, "maktabni yoqtirmayman" deb aytadi. O'qituvchi aytishicha, u tez chalg'iydi, topshiriqlarni oxirigacha bajarmaydi. Ota-onasi esa bolaning bog'chaga bormaganini ta'kidlaydi.

Muhokama uchun savollar:

Ushbu holat qaysi yosh xususiyatlari bilan bog'liq?

Maktabga moslashuvda qiyinchilikning sabablari nimada?

Psixolog qanday ish olib borishi lozim?

## 2-guruh uchun keys

O'rta maktab yoshi: tajovuzkor xulq yoki guruh bosimi

### Keys tavsifi:

12 yoshli o'quvchi sinfdoshlari bilan tez-tez janjallashadi, darsda o'qituvchiga qarshilik ko'rsatadi. Ayrim hollarda u boshqa bolalarni masxara qiladi. Suhbat davomida u sinfda o'z o'rnini "ko'rsatishi" kerakligini aytadi.

### Muhokama uchun savollar:

- Ushbu xulq qaysi yosh bosqichiga xos?
- Tajovuzkorlik ortida qanday psixologik ehtiyojlar yotishi mumkin?
- Psixologik profilaktika qanday tashkil etiladi?





### 3-guruh uchun keys

Yuqori maktab yoshi: past o'z-o'zini baholash yoki kelajak bilan bog'liq xavotir

#### Keys tavsifi:

16 yoshli o'quvchi darslarni yaxshi o'zlashtirsa-da, o'z imkoniyatlariga ishonmaydi. Imtihonlar oldidan kuchli xavotir sezadi, "mendan hech narsa chiqmaydi" degan fikrlarni tez-tez aytadi. Kelajak kasbini tanlashda ikkilanadi.

#### Muhokama uchun savollar:

- Bu holat yuqori maktab yoshiga qanday bog'liq?
- O'z-o'zini baholashning pasayishiga nima ta'sir qilmoqda?
- Psixolog qanday qo'llab-quvvatlovchi ish olib borishi mumkin?

#### Umumiy topshiriq:

- Muammoni yosh xususiyati nuqtayi nazaridan tahlil qilish
- Psixologik sababni aniqlash
- Profilaktika yoki ish dasturi taklif qilish

## 2-TRENING

### BOLALARNING YOSH XUSUSIYATLARI ASOSLARI

*(Nazariy-amaliy trening)*

**Trening maqsadi.** Kichik maktab yoshidagi bolalarning yosh xususiyatlarini tahlil qilish, individual-psixologik va ijtimoiy rivojlanish sohalarini bilish, amaliy faoliyatda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish.

#### **Trening formati**

- Kichik guruhlarda ishlash
- Muammoli vaziyatlarni tahlil qilish
- Guruh taqdimotlari
- Nazariy bilimlarni mustahkamlash
- Interaktiv mashqlar va energayzerlar

#### **1-bosqich. Kirish va motivatsiya**

**Mashq: “Psixolog nigohi bilan bola”.** Ishtirokchilarga savol beriladi:

“Siz amaliyotda uchratgan eng murakkab kichik maktab yoshidagi bolaning 3 ta xususiyatini yozing.”



## 2-bosqich. Guruhlarda analitik topshiriq

Ishtirokchilar 4 ta kichik guruhga bo'linadi.

Har bir guruhga alohida yo'nalish beriladi:

### **Guruh Yo'nalish**

1-guruh Kognitiv rivojlanish (diqqat, xotira, tafakkur)

2-guruh Emotsional rivojlanish

3-guruh Ijtimoiy rivojlanish va muloqot

4-guruh Xulq-atvor va moslashuv

### **Topshiriq:**

Belgilangan yo'nalish bo'yicha:

asosiy yosh xususiyatlarini aniqlash

ehtimoliy qiyinchiliklarni yozish

psixolog uchun xavf zonalarini ko'rsatish



### **3-bosqich. Guruh taqdimotlari (20 daqiqa)**

Har bir guruh:

o'z yo'nalishini taqdim etadi, misollar keltiradi, savollarga javob beradi

### **4-bosqich. Nazariy mustahkamlash (20 daqiqa)**

Trener tomonidan:

- yosh psixologiyasi nazariy asoslari
- kichik maktab yoshining yetakchi faoliyati
- normativ va individual farqlar tushuntiriladi

Nazariya oldin bajarilgan guruh ishlari bilan bog'lanadi.

### **5-bosqich. Mini enerdjayzer (5 daqiqa)**

#### **Mashq: “Diqqatni boshqarish”**

Ishtirokchilar bilan kichik harakatli mashq o'tkaziladi (bolalar bilan ishlashda qo'llash mumkin).



# 3-TRENING

## YOSH XUSUSIYATLARINI PSIXOLOGIK DIAGNOSTIKA ORQALI ANIQLASH

*(Amaliy trening)*

### Trening maqsadi

Maktab psixologlarida kichik maktab yoshidagi bolalarning rivojlanish darajasini diagnostika qilish, natijalarni tahlil qilish va xulosalar chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirish.

### 1-bosqich. Guruhli muammo qo'yish

Savol:

“Diagnostika natijasi sizga nima berishi kerak?”

Javoblar doskaga yoziladi.

### 2-bosqich. Amaliy topshiriq – diagnostik reja tuzish

Guruhlarga quyidagi **keys** beriladi:

### Keys:

8 yoshli o'quvchi darsda faol emas, tez charchaydi, sinfdoshlar bilan aloqa qilishdan qochadi.

### Topshiriq:

- qaysi psixologik sohalar tekshiriladi
- qaysi diagnostik metodlar tanlanadi
- natijalarni qanday talqin qilish mumkin

### 3-bosqich. Taqdimot va muhokama

Guruhlar o'z diagnostik rejasini himoya qiladi.

### 4-bosqich. Nazariy blok

Trener tomonidan:


- diagnostikaning etik tamoyillari
- yoshga mos metodlarni tanlash
- xatolardan qochish yo'llari tushuntiriladi

# YOSH XUSUSIYATLARINI PSIXOLOGIK DIAGNOSTIKA ORQALI ANIQLASH

Yosh xususiyatlarini psixologik diagnostika orqali aniqlash — bu bolaning muayyan yosh bosqichiga xos boʻlgan psixik, emotsional, ijtimoiy va shaxsiy rivojlanish darajasini ilmiy asoslangan usullar yordamida oʻrganish jarayonidir. Ushbu yoʻnalish maktab psixologi faoliyatida muhim oʻrin tutadi, chunki diagnostika natijalari profilaktik, korreksion va rivojlantiruvchi ishlar mazmunini belgilashga xizmat qiladi.

## PSIXOLOGIK DIAGNOSTIKADAN KOʻZLANGAN MAQSAD

- bolaning yosh davriga xos rivojlanish xususiyatlarini aniqlash;
- individual-psixologik farqlarni belgilash;
- oʻquv faoliyati va xulq-atvordagi qiyinchiliklarning sabablarini ochib berish;
- risk guruhiga kiruvchi bolalarni erta aniqlash;
- individual rivojlanish va korreksiya dasturlarini ishlab chiqish.



## DIAGNOSTIKADA O‘RGANILADIGAN ASOSIY YO‘NALISHLAR

### 1. Kognitiv (bilish) rivojlanish

- diqqat, xotira, tafakkur, tasavvur rivoji;
- ma’lumotni qabul qilish va qayta ishlash xususiyatlari;
- yoshga mos intellektual daraja.


### 2. Emotsional sohaning rivojlanishi

- emotsional barqarorlik darajasi;
- tashvishlilik va stressga moyillik;
- his-tuyg‘ularni ifoda etish va boshqarish qobiliyati.

### 3. Shaxsiy rivojlanish

- o‘z-o‘zini baholash darajasi;
- “Men” obrazining shakllanganligi;
- motivatsiya va ehtiyojlar tizimi.





#### 4. Ijtimoiy rivojlanish

- tengdoshlar va kattalar bilan munosabat;
- jamoadagi oʻrni;
- muloqot koʻnikmalari va ijtimoiy rollarni qabul qilish.

#### 5. Xulq-atvor xususiyatlari

- intizomga munosabat;
- agressiv yoki passiv xulq namoyon boʻlishi;
- qoidalarga rioya qilish darajasi.

## PSIXOLOGIK DIAGNOSTIKA USULLARI

- kuzatuv (tabiiy va tashkil etilgan);
- suhbat va intervyu;
- anketalar va so'rovnomalar;
- test va metodikalar (yoshga mos);
- proyektiv usullar (rasm, hikoya tuzish va boshqalar);
- pedagogik hujjatlarni tahlil qilish.



## YOSH BOSQICHLARI BO'YICHA DIAGNOSTIKA YO'NALISHLARI

### **Kichik maktab yoshi**

- maktabga moslashuv darajasi;
  - o'quv motivatsiyasi;
- diqqat va xotira rivoji;
  - emotsional holat.

### **O'rta maktab yoshi**


- o'z-o'zini anglash;
- ijtimoiy maqom va guruhdagi o'rni;
- tajovuzkorlik va tashvishlilik darajasi;
  - o'quv faoliyatiga munosabat.

## YUQORI MAKTAB YOSHI

- kasbiy qiziqishlar;
- hayotiy maqsadlar;
- stressga chidamlilik;
- mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati.

## DIAGNOSTIKA NATIJALARIDAN FOYDALANISH

- individual psixologik xulosalar tayyorlash;
- profilaktik va korreksion ishlar rejasini tuzish;
- pedagog va ota-onalarga tavsiyalar berish;
- qayta diagnostika orqali rivojlanish dinamikasini kuzatish.



## DIAGNOSTIKANING ETIK TAMOYILLARI

Psixologik diagnostika

jarayonida etik tamoyillarga rioya qilish bolaning huquqlari, psixologik xavfsizligi va shaxsiy daxlsizligini ta'minlashning asosiy sharti hisoblanadi.

### Asosiy etik tamoyillar quyidagilardan iborat:

- **Ixtiyoriylik**  
Diagnostika bolaning va qonuniy vakillarining roziligi asosida o'tkaziladi. Majburlashga yo'l qo'yilmaydi.
- **Xabardorlik**  
Bolalar va ota-onalarga diagnostika maqsadi, mazmuni va natijalardan qanday foydalanilishi tushuntiriladi.
- **Konfidensiallik**  
Olingan ma'lumotlar maxfiy saqlanadi, faqat mutaxassislar doirasida va bola manfaatlarini ko'zlab qo'llaniladi.
- **Zarar yetkazmaslik tamoyili**  
Diagnostika jarayoni bolada salbiy his-tuyg'ular, qo'rquv yoki stress keltirib chiqarmasligi kerak.
- **Shaxsni emas, muammoni baholash**  
Diagnostika natijalari bolani "tamg'alash" uchun emas, rivojlanish ehtiyojlarini aniqlash uchun xizmat qiladi.

## YOSHGA MOS METODLARNI TANLASH

- Diagnostika samaradorligi ko'p jihatdan metodikalarning bolaning yoshi, rivojlanish darajasi va individual xususiyatlariga mos tanlanishiga bog'liq.
- Yoshga mos metod tanlashda quyidagi mezonlar inobatga olinadi:
  - ✓ bolaning yosh davri xususiyatlari;
  - ✓ bilish jarayonlarining rivojlanganlik darajasi;
  - ✓ emotsional barqarorlik;
  - ✓ nutq va muloqot imkoniyatlari;
  - ✓ diqqatni jamlay olish davomiyligi.
- Kichik maktab yoshida — o'yin, rasm, proyektiv metodlar ustun.
- O'rta maktab yoshida — qisqa testlar, anketalar, suhbat va kuzatuv.
- Yuqori maktab yoshida — so'rovnomalar, shaxsiy testlar, kasbiy yo'naltiruvchi metodikalar samarali hisoblanadi.

## DIAGNOSTIKADA UCHRAYDIGAN XATOLAR VA ULARDAN QOCHISH YO‘LLARI

Psixologik diagnostikada yo‘l qo‘yiladigan xatolar natijalarning ishonchliligini pasaytiradi va noto‘g‘ri xulosalarga olib kelishi mumkin.

Eng ko‘p uchraydigan xatolar:

- bitta metodika asosida umumiy xulosa chiqarish;
- bolaning vaqtinchalik holatini doimiy xususiyat sifatida baholash;
- psixologning shaxsiy fikrini natija sifatida qabul qilish;
- yoshga mos kelmaydigan testlardan foydalanish;
- diagnostika natijalarini kontekstdan uzib talqin qilish.


**Xatolardan qochish yo‘llari:**

- bir nechta metodikani qo‘llash (kompleks yondashuv);
- natijalarni kuzatuv va suhbat bilan solishtirish;
- qayta diagnostika orqali dinamikani baholash;
- yosh va individual xususiyatlarni hisobga olish;
- xulosalarni ehtiyotkorlik bilan, tavsiya shaklida taqdim etish.

## XULOSA

Etik tamoyillarga tayanilgan, yoshga mos metodlar asosida o'tkazilgan va xatolardan holi bo'lgan psixologik diagnostika bolaning rivojlanish ehtiyojlarini to'g'ri aniqlash va samarali psixologik yordam ko'rsatishga zamin yaratadi.

Yosh xususiyatlarini psixologik diagnostika orqali aniqlash maktab psixologi faoliyatining asosiy ilmiy-amaliy yo'nalishlaridan biri bo'lib, u bolaning sog'lom psixik rivojlanishi, muammolarni erta aniqlash va samarali psixologik yordam ko'rsatish imkonini beradi.



## 4-TRENING

### YOSH XUSUSIYATLARIDAN KELIB CHIQUADIGAN MUAMMOLAR VA PROFILAKTIKA

*(Amaliy-kreativ trening)*

#### 1-bosqich. Keyslar bilan ishlash

Har bir guruhga alohida vaziyat beriladi:


- o'quv motivatsiyasining pastligi
- tajovuzkor xulq
- past o'z-o'zini baholash
- moslashuvdagi qiyinchiliklar



## Keys 1.O'quv motivatsiyasining pastligi

### Vaziyat tavsifi:

3-sinf o'quvchisi (9 yosh) dars jarayonida faollik ko'rsatmaydi, topshiriqlarni bajarishdan qochadi, tez zerikadi. O'qituvchining ko'rsatmalariga nisbatan befarq, ko'pincha “xohlamayman”, “qiyin” kabi javoblar beradi. Ota-onasi bolaning uyda ham dars qilishga qiziqishi pastligini, topshiriqlarni faqat majburiy tarzda bajarishini ta'kidlaydi.




## Guruh uchun topshiriqlar:

- O'quv motivatsiyasining pasayish sabablarini yosh xususiyatlari nuqtayi nazaridan aniqlang.
- Bolada qaysi psixik jarayonlar yetarli rivojlanmaganini belgilang.
- Psixologik yordam yo'nalishlarini taklif eting.
- Profilaktik chora-tadbirlar rejasini tuzing.

## Keys 2. Tajovuzkor xulq

### Vaziyat tavsifi:

2-sinf o'quvchisi (8 yosh) sinfdoshlari bilan tez-tez nizoga kirishadi, jismoniy va og'zaki tajovuz namoyon qiladi. O'qituvchining eslatmalariga keskin javob beradi, qoidalarga rioya qilishda qiyinchilikka duch keladi. Ota-onasi bolaning uyda ham his-tuyg'ularini nazorat qilishda qiyinchiliklari borligini ma'lum qiladi.



### **Keys 3. Past o‘z-o‘zini baholash**

#### **Vaziyat tavsifi:**

4-sinf o‘quvchisi (10 yosh) o‘z imkoniyatlariga ishonmaydi, ko‘pincha “men qila olmayman”, “mendan yaxshi boshqalar bor” deb aytadi. Darsda javob berishdan qo‘rqadi, xatoga yo‘l qo‘yishdan xavotirlanadi. Sinfdoshlar orasida passiv, o‘z fikrini bildirishda qiynaladi.

#### **Guruh uchun topshiriqlar:**

- Past o‘z-o‘zini baholashning shakllanish sabablarini tahlil qiling
- Kichik maktab yoshida o‘z-o‘zini baholash rivojlanish xususiyatlarini belgilang
- Psixologik qo‘llab-quvvatlash usullarini taklif eting
- Bolada ijobiy “Men-konsepsiya”ni shakllantirish bo‘yicha ish rejasini ishlab chiqing

### **Keys 4. Moslashuvdagi qiyinchiliklar**

#### **Vaziyat tavsifi:**

1-sinf o‘quvchisi (7 yosh) maktab muhitiga moslashishda qiynalmoqda. Dars paytida xavotirli, ko‘pincha yig‘laydi, o‘qituvchidan ajralishni istamaydi. Tanaffuslarda yolg‘iz qolishni afzal ko‘radi, sinfdoshlari bilan muloqotga kirishmaydi.



## Guruh uchun topshiriqlar:

- Moslashuv qiyinchiliklarining yoshga xos sabablarini aniqlang
- Psixologik diagnostika uchun zarur yoʻnalishlarni belgilang
- Moslashuvni yengillashtirishga qaratilgan psixologik chora-tadbirlarni taklif eting
- Ota-ona va pedagog bilan hamkorlik strategiyasini ishlab chiqing

## Topshiriq:

- muammoning yoshga xos sabablari
- psixologik yordam yoʻnalishlari
- profilaktik chora-tadbirlar



## 2-bosqich. Mini-dastur tuzish

### Guruhlar:

- 3–5 mashgʻulotdan iborat mini-dastur ishlab chiqadi
- mashqlar, oʻyinlar va maslahat shakllarini belgilaydi

## 3-bosqich. Yakuniy taqdimot

Har bir guruh oʻz dasturini taqdim etadi.

## KICHIK MAKTAB YOSHI (7–10 yosh)

### Yosh xususiyatlaridan kelib chiqadigan muammolar va profilaktika

**Kichik maktab yoshi (7–10 yosh)** bola rivojlanishida oʻta muhim bosqich hisoblanib, ushbu davrda bolaning shaxsiy, emotsional-irodaviy, bilish va ijtimoiy sohalari jadal shakllanadi. Maktab taʼlimiga kirib kelishi bilan bolaning ijtimoiy maqomi oʻzgaradi, yangi talablar va qoidalar paydo boʻladi. Ana shu oʻzgarishlar ayrim hollarda bolada turli psixologik qiyinchiliklar va muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.


### Yosh xususiyatlaridan kelib chiqadigan asosiy muammolar

#### Oʻquv motivatsiyasining pasayishi

Bolada oʻqishga qiziqishning susayishi, faqat tashqi ragʻbat (baho, maqtov)ga yoʻnalish, muvaffaqiyatsizlikdan qoʻrqish holatlari kuzatiladi.

#### Emotsional beqarorlik

His-tuygʻularni nazorat qilishning yetarli darajada shakllanmaganligi sababli tez xafa boʻlish, yigʻloqilik, tajovuzkor reaksiyalar yoki haddan tashqari xavotirlanish holatlari uchraydi.



## **Past o'z-o'zini baholash**

Kattalar bahosiga yuqori darajada bog'liqlik bolada o'ziga nisbatan ishonchsizlik, passivlik va tashabbussizlikka olib kelishi mumkin.

## **Moslashuvdagi qiyinchiliklar**

Yangi maktab muhitiga, jamoaga, qoidalarga ko'nikishda qiyinchiliklar, ijtimoiy aloqalar o'rnatishda muammolar kuzatiladi.

## **Xulq-atvordagi muammolar**


Qoidalarga rioya qilmaslik, intizomiy qiyinchiliklar, impulsiv harakatlar yoshga xos o'zini boshqarish mexanizmlarining to'liq shakllanmaganligi bilan bog'liq bo'ladi.

## **Profilaktika ishlarining asosiy yo'nalishlari**

Yosh xususiyatlaridan kelib chiqadigan muammolarni oldini olishda profilaktik ishlar tizimli va kompleks xarakterga ega bo'lishi lozim.

### **1. Psixologik profilaktika**

- bolada o'quv faoliyatiga ijobiy munosabatni shakllantirish
- emotsional barqarorlikni rivojlantirish
- o'z-o'zini baholashni qo'llab-quvvatlash



## **2. Rivojlantiruvchi ishlar**

- o‘yinli, trening va interaktiv mashqlar orqali ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish
- muloqot va hamkorlik madaniyatini shakllantirish

## **3. Pedagoglar bilan hamkorlik**

- yosh psixologiyasi xususiyatlarini hisobga olgan holda ta‘limni tashkil etish
- bolani solishtirishdan qochish, individual yondashuvni ta‘minlash

## **4. Ota-onalar bilan ish**

- ota-onalarni bolaning yosh xususiyatlari bilan tanishtirish
- qo‘llab-quvvatlovchi tarbiya uslublarini tavsiya etish

## O'RTA MAKTAB YOSHI (11–14 yosh)

### Yosh xususiyatlaridan kelib chiqadigan muammolar va profilaktika

O'rta maktab yoshi o'smirlik davrining boshlang'ich bosqichi bo'lib, bolaning jismoniy, psixik va ijtimoiy rivojlanishida keskin o'zgarishlar bilan xarakterlanadi. Ushbu davrda shaxsning "Men" obrazi shakllana boshlaydi, mustaqillikka intilish kuchayadi, kattalarga nisbatan tanqidiy munosabat paydo bo'ladi.

#### **Asosiy psixologik muammolar**

##### **O'quv motivatsiyasining beqarorligi**

O'qishga qiziqishning pasayishi, fanlarga nisbatan tanlab munosabat, nazoratga qarshilik holatlari kuzatiladi.

##### **Emotsional keskinlik va tajovuzkorlik**

Gormonal o'zgarishlar tufayli tez asabiylashish, o'zi va atrofdagilarga nisbatan tajovuzkor munosabat paydo bo'lishi mumkin.

##### **O'z-o'zini anglashda qiyinchiliklar**

O'smir o'zini katta deb his qilib, bir vaqtning o'zida ishonchsizlikni boshdan kechiradi, ichki qarama-qarshiliklar kuchayadi.

##### **Jamoa bilan munosabatda muammolar**

Tengdoshlar fikriga yuqori darajada bog'liqlik, rad etilishdan qo'rqish, guruh bosimiga tushib qolish xavfi mavjud.

##### **Intizom va qoidalarga qarshilik**

Kattalar talablarini qabul qilmaslik, qoidalarni buzishga moyillik o'smirlikning xos belgisi hisoblanadi.

## O'RTA MAKTAB YOSHI (11–14 yosh)

### Yosh xususiyatlaridan kelib chiqadigan muammolar va profilaktika

O'рта maktab yoshi o'smirlik davrining boshlang'ich bosqichi bo'lib, bolaning jismoniy, psixik va ijtimoiy rivojlanishida keskin o'zgarishlar bilan xarakterlanadi. Ushbu davrda shaxsning “**Men**” obrazi shakllana boshlaydi, mustaqillikka intilish kuchayadi, kattalarga nisbatan tanqidiy munosabat paydo bo'ladi.



## ASOSIY PSIXOLOGIK MUAMMOLAR

### O'quv motivatsiyasining beqarorligi

O'qishga qiziqishning pasayishi, fanlarga nisbatan tanlab munosabat, nazoratga qarshilik holatlari kuzatiladi.

### Emotsional keskinlik va tajovuzkorlik

Gormonal o'zgarishlar tufayli tez asabiylashish, o'zi va atrofdagilarga nisbatan tajovuzkor munosabat paydo bo'lishi mumkin.

### O'z-o'zini anglashda qiyinchiliklar

O'smir o'zini katta deb his qilib, bir vaqtning o'zida ishonchsizlikni boshdan kechiradi, ichki qarama-qarshiliklar kuchayadi.

### Jamoa bilan munosabatda muammolar

Tengdoshlar fikriga yuqori darajada bog'liqlik, rad etilishdan qo'rqish, guruh bosimiga tushib qolish xavfi mavjud.

### Intizom va qoidalarga qarshilik

Kattalar talablarini qabul qilmaslik, qoidalarni buzishga moyillik o'smirlarning xos belgisi hisoblanadi.



# XULOSA

Kichik maktab yoshida kuzatiladigan muammolar bolaning “qiyinligi” bilan emas, balki uning yoshga xos psixologik rivojlanish xususiyatlari bilan bog‘liqdir. Shuning uchun maktab psixologining asosiy vazifasi - ushbu xususiyatlarni to‘g‘ri anglab, muammolarni barvaqt aniqlash va samarali profilaktik ishlar orqali bolaning sog‘lom rivojlanishini ta‘minlashdan iborat.



## PROFILAKTIKA ISHLARINING ASOSIY YO'NALISHLARI

### 1. Psixologik qo'llab-quvvatlash

- emotsional holatlarni tanib olish va boshqarish ko'nikmalarini shakllantirish
- stressga bardoshlilikni oshirish

### 2. Ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish

- jamoada konstruktiv muloqot qilish
- nizolarni tinch yo'l bilan hal etishga o'rgatish

### 3. O'quv motivatsiyasini qo'llab-quvvatlash

- o'quv faoliyatini shaxsiy maqsadlar bilan bog'lash
- muvaffaqiyat vaziyatlarini yaratish

### 4. Ota-ona va pedagoglar bilan hamkorlik

- o'smirlik yoshining psixologik xususiyatlari bo'yicha maslahatlar
- avtoritar emas, hamkorlikka asoslangan yondashuvni tavsiya etish



## XULOSA

O'rta maktab yoshidagi muammolar o'smirning shaxsiy rivojlanish jarayonining tabiiy qismi hisoblanadi. Maktab psixologi ushbu muammolarni nazorat qilish emas, balki o'smirni qo'llab-quvvatlash va to'g'ri yo'naltirish orqali uning sog'lom kamol topishini ta'minlashi lozim.



## YUQORI MAKTAB YOSHI (15–17 yosh)

**Yosh xususiyatlaridan kelib chiqadigan muammolar va profilaktika**

Yuqori maktab yoshi shaxsiy va kasbiy o'zini anglash davri hisoblanadi. Ushbu bosqichda o'quvchi hayotiy maqsadlar, kasb tanlash, mustaqil qaror qabul qilish bilan bog'liq muhim psixologik vazifalarni hal qiladi.



# Asosiy psixologik muammolar

## **Kelajak bilan bog'liq xavotir va stress**

Imtihonlar, kasb tanlash, mustaqil hayotga tayyorgarlik yuqori darajadagi psixologik zo'riqishni keltirib chiqaradi.

## **O'zini identifikatsiya qilishda qiyinchiliklar**

“Men kimman?” va “Qanday bo'lishni xohlayman?” kabi savollarga javob izlash ichki inqirozlarga sabab bo'lishi mumkin.

## **O'z-o'zini baholashning beqarorligi**

Yuqori talablar fonida o'zini past baholash yoki aksincha, haddan ortiq yuqori baholash holatlari uchraydi.

## **Ijtimoiy bosim va riskli xulq**

Tengdoshlar ta'siri ostida xavfli qarorlar qabul qilish, salbiy odatlarga moyillik paydo bo'lishi mumkin.

## **Kattalar bilan munosabatda ziddiyatlar**

Mustaqillikka intilish sababli o'qituvchi va ota-onalar bilan kelishmovchiliklar kuzatiladi.

## PROFILAKTIKA ISHLARINING ASOSIY YO'NALISHLARI

### 1. Psixologik barqarorlikni rivojlantirish

- stressni yengish usullarini o'rgatish
- emotsional o'z-o'zini nazorat qilish

### 2. Kasbiy yo'naltirish

- qiziqish va qobiliyatlarni aniqlash
- real maqsad qo'yishga yordam berish

### 3. Hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish

- qaror qabul qilish
- mas'uliyat va mustaqillikni rivojlantirish

### 4. Profilaktik treninglar

- riskli xulq-atvorning oldini olish
- salbiy ta'sirlarga qarshi tura olish ko'nikmalarini shakllantirish



# XULOSA

Yuqori maktab yoshi — shaxsning hayotga tayyorgarlik bosqichi boʻlib, ushbu davrda psixologik qoʻllab-quvvatlash hal qiluvchi ahamiyatga ega. Maktab psixologining vazifasi — oʻquvchiga oʻzini anglash, toʻgʻri tanlov qilish va mustaqil hayotga ishonch bilan qadam qoʻyishida yordam berishdan iborat.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA'LIMNI  
RIVOJLANTIRISH RESPUBLIKA  
ILMIY-METODIK MARKAZI



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



Ishtirokingiz uchun rahmat!